

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY nomidagi
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKUL'TETI
O'ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI
O'ZBEKISTON TARIXI FANIDAN

Mavzu: Qo'qon xonligida diniy mansab va unvonlar.

KURS ISHI

2013-2014 o'quv yili

Bajaruvchi 3-kurs 03-guruh talabasi Norboboyev A
Ilmiy rabar: Qo'shbaqov H.A.

Kurs ishi O'zbekiston tarixi kafedrası komissiyasida himoya qilindi va _____ga baholandi. (Bayonnoma №_2014)

Komissiya raisi: _____

Komissiya a'zolari:

Samarqand - 2014

Reja:

Kirish.

Asosiy qism

1. Qo'qon xonligidagi unvon va mansablar
2. Harbiy va harbiy-ma'muriy unvon va mansablar
3. Saroy unvon va mansablari
4. Diniy mansab va unvonlar
5. Qozixonadagi unvon va mansablar

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

Keyingi paytlarda tariximizning davlat, ma'muriy idora va mahalliy boshqaruv tizimi hamda uning turli jihatlariga qiziqish hamda ularni har tomonlama o'rganishga jiddiy e'tibor berilayapti. Ilmiy doiraga jalb qilinmagan yozma manbalar, ma'lumotlarning borgan sari u yoki bu darajada tadqiq etilishi munosabati bilan yuqorida qayd etilgan sohalarni qayta ko'rib chiqishga ehtiyoj sezilayapti. Markaziy Osiyoda markaziy aparat an'anaviylikka asoslangan va o'tmishdagi idoraviylik usullarini na'munasi sifatida ham namayon bo'ladi. Buni biz o'rta asr islomiy jamiyatlaridagi ayrim unsurlarning amirliklar va xonliklarga o'tishi bilan aloqadorligi misolida ko'rishimiz mumkin. Qadimiy podsholiklar, imperiyalar bilan o'zaro madaniy muloqatda bo'lgan arab dunyosi ta'sirida Xuroson, Xorazm, Mavoo'raunnahr va ularga qo'shni hududlarda xalifalikning siyosiy unsarlari mustahkam joy topa oldi. Somoniylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar sulolalari yurtimizdagi muhim musulmon siyosiy tashkilotlari sanalib, bazi bir farqlarga qaramay abbosiylar xalifaligining na'munasi sifatida moziyda o'z izini qoldira oldi. Hatto g'ayridinlardan bo'lgan va yurtimizni isloh qilib, uni o'z tafarrufiga kiritgan mo'g'ullar Chig'atoy ulusi davrida sobitlikka ega islomiy tuzumni o'z idoraviy usullariga joriy etishdan o'zga yo'l topa olmadi. Keyingi bosqichda Amir Temur va uning noyob iste'dodi tufayli chingiziylar va xalifalik boshqaruvi asosidagi yangi harbiy siyosiy davlat yuzaga keldi va bu qobilyat sohibining say harakatlari temuriylar uyg'onish davriga asos bo'ldi. Turonlik avlodlari uchun u barchaga na'muna bo'ladigan boshqaruv tizimini qoldirib ketdi. Ma'muriy boshqaruvchilik hind yerlariga ham uning evarasi Zahiriddin Muhammad Bobur orqali kirib mazkur tuproqda mustahkam tizimni ta'minladi. Sulolalar o'zlarini taxtda mustahkam turishlarni legitimasiya qilishda kelib chiqishlarini Chingizxonga (Shayboniylar, Ashtarxoniylar, Xiva xonlari) Amir Temurga (Qo'qon xonlari), boshqa geneologik tarmoq orqali payg'ambarga yoki xalifa Aliga bog'lashga yarim afsona va qisman haqiqat

ishlari bilan bir qatorda rutbalar iyerarxiyasi ham ularga taqlid qilish yo'lidan bordi. Sayyid, xoja, amir, xon, bek avlodlari diniy va dunyoviy merosxo'rlar sanalgan, ijtimoiy hayotda esa ularga mustahkam joy va martaba ta'minlangan. Nasl-nasabiga qonuniy tus berish hozirgi vaqtda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va bu isbot talab qiladigan alohida tadqiqot olib borishga undaydigan soha.

Ushbu malakaviy bitiruv ishida asosan davlatchilik tizimidagi martabalar haqida ma'lumotlar so'nggi tadqiqot natijalari negizida havola qilinayapti. Uning xronologik davri XVIII asr boshlari XIX asr oxiri va XX asr boshlariga qadar vaqtni qamrab oladi. Markaziy Osiyo uchun so'nggi o'rta asrlar davri nomi bilan tarixga kirgan mazkur bosqichda bu hududda Buxoro amirligi, Qo'qon xonligi va Xiva xonliklari yirik davlat birlashmalari sifatida mavjud edi. Ularda yuqorida qayd qilganimizdek boshqaruv an'analari yaxshi saqlanib qolgan va davlatchilikning eski tizimi mustahkam bo'lgan. Qo'qon va Xiva xonliklari xon unvonli hukmdorlar boshqarsa, Buxoro amirligini amir idora qilgan. Ular boshqaru tizimida bir biridan farq qiluvchi ayrim bir unvonlar va mansablarni hisobga olganda tarkibiy tuzilishi yaqin o'xshashligi bilan xarakterlanadi. Islom jamiyatida omma va xossa masalalarini ochishda rutba, unvon, amal va mansablarni o'rganish, ularning ijtimoiy negizlarini ochishda ham muhim mavqye kasb etadi. Markaziy Osiyoning so'nggi o'rta asr jamiyati organizmi, shakl-shamoyili undagi boshqaruv tizimini har tomonlama o'rganish bilan bevosita bog'liqligini nazarda tutadigan bo'lsak yuqoridagi masalalarga e'tibor qaratish lozimdir. Ma'muriy tizimga ko'z yugirtirish jarayonida ijtimoiy hayotning rang-barangligi qatorida uning murakkbligi bir biriga chirmashib ketganligi, ijobiy va salbiy jihatlari haqida tasavvur hosil bo'ladi. Muhimi esa davlat boshqaruv tizimidagi turli mansablar, ularga qanday yo'l bilan erishilganligi ayrim unvonlarning shakllanishi va paydo bo'lishi, idora tizimida martabalarining o'rni va mavqyeini bilib olish mumkin. Malakaviy bitiruv ishida martabalar nomlari, ularning lug'aviy ma'nolariga alohida diqqat qaratilgan

hamma qaysi tilga mansubligiga ham to'xtalgan. Xullas tadqiqot O'zbekiston tarixini davlatchilik bilan bog'liq muommolarini ochishda, bu sohani yangi ma'lumotlar bilan boyitishda, mutolaa qiluvchilarni esa bu sohada yangi tasavvur qildiradi degan umiddamiz.

Qo'qon xonligidagi unvon va mansablar

Qo'qon xonligi XVIII asrning boshlarida bo'linib ketgan ashtarxoniylar saltanatiga qarashli bir hududda tashkil topib, 1876 yilning fevral oyigacha mavjud edi. Bu davlat XVIII-XIX asrlarda Turkistonning tarixiy-siyosiy, xo'jalik va madaniy hayotida katta o'rin tutgan.

Qo'qon xonligining asoschisi ming qabilasinnng boshlig'i Shohruhbiy (vafoti 1721 yil) hisoblanadi. Xonlikda Buxoro amirligiga o'xshab Amir Temur davrida shakllangan davlat boshqaruv tartibi va tuzumi mavjud edi. Qo'qon xonligida joriy qilingan hap xil unvon va mansablar, vazifa va martabalar hamda amallarni o'rganish davlatchilik tarixini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, Turkiston davlat boshqaruv tartibining tarixi qadimiy zamonlarga borib taqaladi. Sharq davlatchilik tuzumi Ahmoniylar davridan (eramizdan oldingi 6-5 asrlar) boshlab to Sohibqiron Amir Temur davrigacha muayyan bir tartibda bo'lib keldi. Amir Temur davrida davlat boshqaruvi aniq bir nizom asosida o'rnatilgan edi. Keyinchalik bu nizom davr va zamona taqozosiga ko'ra ba'zi o'zgarishlarga uchrab, XX asr boshlarigacha yashadi.

Turkiston davlatida joriy bo'lgan vazifa, unvonlar va, mansablar, ular sohiblarining vazifalari haqidagi ba'zi ma'lumotlar olimlardan A.Kun, Ch.Valixonov, V. V.Bartold, A.Semyonov, B.Ahmedov, B.A.Vildanova, A.L.Troisekaya, R.Nabiyev asarlarida uchraydi. Bular ichida B. Ahmedovning «Muloqot» majallasida e'lon qilingan «Amir Temurning

davlatni idora qilish siyosati» maqolasi¹ juda ham dolzarb va qimmatlidir.

Markaziy Osiyo davlatlarining «tarixini o'rganish tarixchi va huquqshunos olimlar oldila Typgan muhim va aslo kechiktirib bo'lmaydigan vazifadir, chunki bunday ilmiy izlanishlarning ilmiy va nazariy ahamiyati benihoya kattadir», deb yozadi Bo'riboy Ahmedov²

Shu kabi mulohazalarga tayanib va o'nlab mahalliy tarixchilarning XIX asrda yozib qoldirilgan, tarixiy asarlarining ma'lumotlari asosida bizni qiziqtirayotgan masalalarni yoritish yo'li bugungi kunga kelib yuzaga keldi. Ayni paytda Qo'qon tarixiga oid adabiyotlar soni ellikdan oshdi, ammo ulardagi muhim ma'lumotlar ilmiy izlanishlar doirasiga to'liq jalb etilmagan. Bu ma'lumotlar Tapqoq holda bo'lishiga qaramay muayyan bir tadqiqotni talab qiladi

Ko'qon xonligidagi unvon, mansab va amallar haqida mahalliy mualliflardan «Turkiston viloyatining gazetisi» muharriri Mullo Olim Mahdum Hoji «Tarixi Turkiston» nomli asarida³ to'xtalib o'tgan. U xonlikdagi amaldorlarning 24 darajaga bo'lib, bu haqda quyidagilarni yozadi:

«Ho'qand xonliklari asrida joriy bo'lib turgan har xil mansablar, chunonchi: Mingboshi va Amirilashkarlik: mansabi. Bu mansab voyennuy ministrlilik qatorida bo'lub, ondin boshqa hukumatning hamma ishiga mudoxalasi, chunonchi, xorijiya ishlariiga tamom daxli bo'ladur.

Ikkinchi Qo'shbegilik: mansabi. Bu mansabdagi odamlar doimo xon huzurida maslahatchi qatorida turib va yoki biror katta shaharga hokimi bilistiqlol nasib qiladur.

Uchinchi Parvonachi. Bu mansabdagi zot ham qushbegi Lavozimini ado qiladur.

¹ Ахмедов Б. Амир Темурнинг давлатни идхора қилиш сиёсати //Мулоқат, 1994 № 3-4, № 4-5

² Мулоқат, 1994, № 3-4 37 бет

³ Мулло Олим Махмуд Хожи. Тарихи Туркистон. –Т.: Туркистон генерал губернаторлиги нашриёти, 1995, 164-165 бетлар

Trtinchn Shig'ovul. Bu odam vaziri ilmiyadek o'lub qozi, mudaris, a'lam, shayx ul-mashshoyixlar oning ko'rsatgani bo'yicha tayin qilinib, bularning taftishlari ham anga oiddir.

Beshinchi: Xudaychi (udaychi-aslida, hidoyachi) Bu zot xonga adyutant hukmida bo'lub, xonga maxsus beRiladurg'on arizaga rizaga va bo'lak ishlarga vosita bo'ludur.

Oltinchi Tunqator. Bu mansabdagi odam xonning maxsus yotadurg'on joyigaposbondek, kechasi doimo uxlamay xonning amriga muntazir bo'lib turardilar.

Yettinchi Noib. Tomomi sarbozlar aning ixtiyorida bo'ludur.

Sakkizinchi Otaliq.

To'qqizinchi Dodxoh

O'ninchi Mehtarboshi.

O'n birinchi Sharbatdor.

O'n ikkinchi Dasturxonchi.

O'n uchinchi Xazinachi.

O'n to'rtinchi Maxramboshi.

O'n beshinchi Eshikog'aboshi.

O'n oltinchi Pansotboshi.

O'n yettinchi To'qsabo.

O'n sakkizinchi Devonbegi.

O'n to'qqizinchi Mirzaboshi.

Yigirmanchi Sarkor.

Yigirma birinchi Miraxo'rboshi.

Yigirma ikkinchi Yuzboshi.

Yigirma uchinchi Bekovulboshi.

Yigirma to'rtinchi Daxboshi.

Ushbu mansabdorlarning hyech qayularida muqarrar vazifa bo'lmay, qushbegi (parvonachi) larga biror kattashahar va andin

kichiklarga qishloq yoki biror ariq berib, boshqa mansablarga podshohlikdan ot, libos, aslaha, bir yilda ikki uch marotaba g'alla sarupo berar edilar. Mundin boshqa bir necha mayda mansablar ham bo'lur edi. Ilmiya va huquq mansablaridan qozi ul-quzot, qoziyi kalon, qoziyi askar, qoziyi maxsus, a'lam, muftiy, mudarris. Bularning har qayularining o'zlariga maxsus lavozimlari bo'ludur. Yana shayx ul-islom, shayx ul-mashoyix mansablari ham bor edi.¹

Mulla Olimning bu qaydlarida ma'lum ziddixiyatlar uchrashidan qa'tiy nazar, bu masalaga bag'ishlangan birinchi izlanishlardan bo'ldi. U mavjud mansab va unvonlarini itasnif qilib, ularni daraja bandlik qilib, tartibga tushirgan.

Qo'qon xonligida unvon va mansablar ularning ijrochilarining vazifalari va martabalariga qarab harbiy, harbiy-ma'muriy, saroyning unvon va mansablari, ma'muriy vazifalariga hamda diniy va diniy qozixona amallariga bo'linar edi.

Xonlikda eng oliy va markaziy unvon "Xon" (qoon-mo'g'ulcha so'z) unvoni bo'lib, uning hukumati cheklanmagan. Farmon berish va uning bajarilishini nazorat etish salohiyatlari uning qo'lida edi. Ming qabilasidan bo'lmish hokimlar Shahrisabz, Urgut, Mog'iyon, Urmitan viloyatlari va bekliklarida ham hukum surganlar. Olimxon davrigacha (1798y.). Ming qabilasidan rahbarlarning unvoni "biy" edi. Olimxon 1805 yili birinchi bo'lib o'zini rasman "xon" deb e'lon qildi. Umarxon (1810-1822) o'zini 1818 yili "amir al-mo'minin" Muhammad Alixon esa 1822 yana "xon" unvonida taxtga ko'tarildi. Xon avlodlarini xonzoda, amirzoda, mirzoda, shayxzoda, to'ra deb o'aytardilar. Xonlikdagi davlat nizomi mutloq yakka- hokimlik bo'lib, faqat ma'lum tarixiy davrlarda

¹ Мулло Олим Махмуд Хожи. Тарихи Туркистон. –Т.: Туркистон генерал губернаторлиги нашриёти, 1995, 164-165 бетлар

uning salohiyati va qudrati cheklab qo'yilgan edi. Bunday hol Musulmonqulning mingboshi va otaliq bo'lgan davrda (Xudayorxon zamonida 1844-1852 yillar), Aliqulning amirlashkarlik va vazirlik davrida (sulton Saidxon xon bo'lgan vaqti, 1863-1865 yillar), ro'y bergan. Xonning kuchi va qudrati ma'lum iqtisodiy asoslarga va ijtimoiy guruhlariga tayanardi. Xon eng katta mulkdor sifatida xonlikdagi hamma yer, suv va qo'riq yerlar, ko'lu anhorlarga egalik qilib, ulardan zakot, xiroj, tanobona va boshqa soliqlar shaklida daromad olib, xazinasini to'ldirardi. Shuning hisobidan hamda boshqa soliqlardan u o'zining saroyi, qo'shini va ma'muriy amaldorlarini tutardi.

Qo'qon xonligi asosan Olimxon, Umarxon va Muhammad Alixon davrlarida (1798-1842 yillari) ancha barqaror va tinch rivojlangan. Lekin XIX asrning o'rtalariga kelib, bu davlat tanazzulga duch kela boshladi. Bu tanazzulning asosiy sabablari sifatida o'rta xalq (raoyo) va ko'chmanchi aholi (barayo) o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni o'zaro nizo va urushlarini, xon taxti uchun olib borilgan janglarni, buxoro amiri bilan o'rtadagi nizo va dushmanliklar, muharriblarni ko'rata bo'ladi. Bular natijasida xo'jalik hayotida pasayib, ijtimoiy tarqoqlik boshlandi, davlat to'la ma'noda inqirozga duch kelib, zaif bo'ldi. Oxir oqibat Qo'qon mamlakati Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olindi.

Xon mutloq hokim sifatida saroy –o'rdasiga sohib bo'lib, quyidagi unvon va mansablar joriy etilgan edi.

2. Harbiy va harbiy-ma'muriy unvon va mansablar

Amir ul-umaro (ar.) amirlar amiri. Qo'qon xonligida Aliquli Hasanbiy o'g'li Sulton Saidxon tomonidan rasman amir ul-umaro mansabiga ko'tarib amirlashkar ham etib tayinlandi. Aliquli tarixda shu oxirgi harbiy unvoni

bilan qolgan. Hijriy 1280 yili safar oyi, 1863 iyul-avgustida Qo'qon xoni Aliquli nomiga yorliq berib, unga "amir ul-umaro" mansabini berib, uning vakolatlarini belgilaydi. Yorliqda jumladan shunday yozilgan: "...chun zohiriy va ma'naviy aholining egasi amri sohib ul-fikr tadbir Mullo Aliquli lutfu shafqat va qahru g'azab ko'zini do'sti-dushmanlarga ochibdur, shuning uchun uning cheksiz shahona marhamatimizga sazavor etib "amir ul-umaro" mansabiga mansub etib sarafroz va arjumand etdik". Tamomi ulamo fuzalo va sayidlar, fuqaro va raiyatning hammalari masharoalayx (Aliquli) ni "amri nafiz-ul-hukum biy-l-istiqlol" (hukum chiqarishda mustaqil amir) deb bilib, uning madhi va hurmati, e'zozlash va ehtiromida qilgacha g'aflat va g'ofillikda qolmasinlar. Saltanat va kishvarsitonlikdek muhim ishlarni, ya'ni qo'shin va askarlarni jihozlash, hokimlar va askar amaldorlarni amalga qo'yish va olish, ko'cha ko'ylarni tartibga keltirish, fasodchi va buzg'unchi kishilarni qatli, jazosi va shunga o'xshash ishlarni sohibi amir va tafakkur bo'lgan amir (Aliquli) ga berdik. Hyech bir kishi bir qarich ham uning hukmi farmoyishidan chiqmasin, uning har bir va har qanday farmonini bajarishi lozim va itoat etishi vojib deb bilsinlar. Uning nomi nasabini amru farmonlarda "amir" sifatsiz zikr qilmasinlar..."

Hujjatdan ma'lum bo'ladiki, Sulton Saidxon o'z homiysi Aliquliga (muayyan kuchlar tazyiqi ham bu yerda mustasno emas) keng vakolatlarni bergan va amir ul-umaro xondan keyin eng yuqori mansab hisoblangan.

1. Amirlashkar (f.-t.). Bu mansabda yuqorida ko'rgaimizdek Aliquli tshayinlangan edi. (1862 yilda). Qhqon xonligida mingboshi harbiy unvonining vazifalari, darajasi amirlashkarlikga teng bo'lgan.

2. Mingboshi (m-t)-mo'g'ullar istilosi davrida mavjud (ularda:timchi), ming nafar askarning boshlig'i. Ma'mur sifatida ming nafar otliq askar beradigan mulkning hokimi harbiy yurishlar vaqtida qo'shinni boshqarib, lashkarboshi unvonini olardi. Bu unvonning egasi

vazirlikka da'vo qildi. Qo'qon xonligida mingboshi amali Sheralixon davrida (1842-1844yy.) yuqori darajadagi vazifaga aylanib ketgan. Mashhur mingboshilar Muhammad Yusuf, Shodiboy, Musulmonquli qipchoq, Muhammad Diyor, Mullo Xolbek, Mirzo Ahmad, Niyoz Muhammad, Aliquli, Abdurahmon Musulmonquli o'g'li va boshqalar bo'lganlar.

3. Botirboshi (m-t) botir va bahodirlar boshlig'i. 500 nafardan ko'p dasta yoki to'pga boshchilik qilardi. Viloyatlarda botirboshi harbiy va qo'shin ishlariga ma'sul edi. Botirboshi ba'zan qurilish hamda sug'orish (ariq qazish) ishlariga ham boshchilik qilgan. Xonlikdagi Ulug' nahr arig'i Otabek botirboshi sarkorligi ostida amalga oshirilgan edi.

4. Qo'shbegi (m.-t.)- harbiy qo'shinning boshlig'i. Yurish va jeang vaqtilarida berilib, uning egasi minboshilik unvonini olishga da'vo qilardi. (Buxoroda eng oliy mansabdor shaxslardan hisoblanardi). Qo'shbegi mansabiga ko'tarilgan zot alohida viloyatga ham hokim bo'lishi mumkin bo'lgan. Umarxon davrida Rajab qo'shbegi, Muhammad Alixon zamonida Muhammad Sharif qo'shbegi (mingboshi), Mirzo Ahmad qo'shbegi (keyinchalik mingboshi mansabiga ko'tarilgan) ma'lum o'rin egallaganlar.

5. Voli (noib-muovin, ar.)-viloyat va tumanlarda xonning o'rinbosari. Viloyatlarda lashkar unga itoat etardi va u viloyatning harbiy va ma'muriy ishlariga boshchilik qilardi.

6. Qal'abon, ba'zan kutvol (ar.-f.)- Qo'qon xonligining chegaralari joylashgan qal'a va istehkomlarning hokimi bo'lib, shu tumanlarning harbiy-ma'muriy, xiroj va boj olish ishlariga, chegarani muhofaza qilish ishlariga javob beradi. Harbiy maqsadga ko'ra, qal'abon vazifasiga dadxoxdan qo'shbegigacha bo'lgan shaxslar tayinlanardi. Lekin mahalliy manbalar ma'lumotiga qaraganda ba'zan xon nomaqbul kishini o'zidan chetlatish uchun ham uzoqdagi qal'alarga ularni hokim qilib

yuborardi. Qanoat otaliq (1862y. o'ldirilgan) Mallaxon davrida Turkiston o'lkasida shunday surgunda bo'lib qaytgan edi.

7. Qo'rboshi (m-t.)- qo'rxona, ya'ni, qurol-aslaha, yaroq, to'p yasash ishxonalarining boshlig'i. Xon va mingboshiga itoat qilardi. Xudayorxon so'nggi xolik davrida (1866-1875 yillar) qo'rboshi qo'rxona, miltiqxona, to'pxona (ishxonai to'pxon) larga boshchilik qilib, xomashyo topib kelishdan tortib, to tayyor mahsulot ishlab chiqarish va ularni xon qaroriga binoat tarqatib berish jarayonigacha javobgar edi. Masalan, Baxti Muhammad qo'rboshi boshchiligida Ovropacha qurollar (miltiqi farangi), to'plar, jazoillar va ularning o'qlari, o'q qutilari (jilt sandiqi to'p va tirkash), to'p aroblari va qurol- aslahalarning ehtiyot qismlari ishlab chiqilardi.

8. Yovar (f.)-soqchilarning boshlig'i. Dastasi yuz znafar askardan iborat edi. Yovar o'z dastasi yoki tubining hisob-kitobi, yillik xarajatini askarlari uchun xazinadan olib berardi. Yovarlar xon devonini hujjatlarida g'allagir (g'alla oluvchi), javgir (bug'doy oluvchi) va sarpo oluvchi sifatida qayd etilgan. Ba'zan yovar biron ariq (jo'y) yoki anhorga ham sohib bo'lib, xizmati uchun "mirobona" xaq olgan. Ba'zi hujjatlarda yovar to'pchilar dastasining boshlig'i hamda qurol yasovchilar ustaxonasining sardori sifatida tasdiqlangan. Mahalliy manbalarda "Tarixi Aliquli amirlashkar" asarida Xayr Muhammad yovar amirlashkarining shaxsiy dastasini boshlig'i sifatida tilga olingan.

9. To'pchiboshi (t.f.)-to'pchilar boshlig'i.

10. To'qsabo (t.)-o'zlarining tug'iga ega bo'lgan harbiy dastasining boshlig'i (Buxoro VII darajali mansabdor).

11. Ponsatboshi (f.t.)-500 nafar askardan iborat guruhni rahbari.

12. Yuzboshi (t.)-100 kishilik dastasining boshlig'i.

13. Panjohboshi (ellikboshi; "elboshi" emas) (f.t.)- 50 nafarlik harbiy tubning sardori.

14. Dahboshi (o'nboshi)-(f.t.)-o'n nafarlik jangiy dastasining sardori.

15. Qarovulbegi (m-t) soqchilar va qarovullar boshlig'i.

Harbiylar qatoriga askar, sarboz, nukar, sipohi, mergan, mahram, (mulozim ma'nosida), botir, jazoilchi, to'pchi, zambarchi, (to'pchi va jazoilchining yordamchisi), qo'rchi, qoravul (soqchi) kiradilar. Qo'shinda yana nog'arachilar surnaychi, dafchi (katta nog'oralarni chaluvchi), ko's va duxulchilar, tug'chi (bayroqbordor) ham xizmat qiladilar. Bu unvonlar o'rtasida mingboshidan posbonboshigacha oliy unvonlar hisoblanardi; yuzboshidan qoravulbegigacha o'rta unvonli mansabli, qolganlari past unvonlilar hisoblanardi. Harbiylar o'rtasida ellikboshidan mingboshigacha lavozimidagi amaldorlar xizmatlariga mulozimlarni oladilar. Pansatboshidan yuqori lavozimdagi harbiylarga yana mirzo va munshi ham xizmat qilardi.

Ma'lumotlarga qaraganda bu unvonlar sohiblari saroydan yiliga quyidagi miqdorda maosh olardilar.

Yuzboshi yiliga 8 pud bug'doy, 240 pud jo'xori (otlari uchun), kimxob chopon, salla, to'shak (yoki uch tillo), etik, po'stin, to'n, chakmon, ikkita qo'y, cheprak, choy, (ikki qadoq), oq choy va har oyi bir tilloyu to'rt tanga pul, ya'ni, bir yilda jami 36 tilloga teng maosh olardi.

Qo'rboshi 400 tanga, qoravulbegi 200 tanga, qushbegi 150 tanga, to'qsabo 300 tanga, qo'rchi 70 tanga va bahodirlar 20 botmon (1 botmon - 7,8 pud-mual.) bug'doy bilan 50 tanga yillik maosh olardilar.

Harbiylarga xizmatlari evaziga xon tomonidan muayyon mulk (yer, ariq yoki anhor) berilardi. Bunday mulk "tanho" bo'lib, mulkdor "tanhodor" nomini olardi. Tanhodorlik huquqi muayyon muddatga berilib, bir umrga ham berilishi ham mumkin edi. "Tanho"-to'g'ridan-to'g'ri meros qolmasdi. Tanhodorning o'g'li borisi otasining vazifasiga o'tsagina bu mulk o'g'liga o'tardi. Ba'zan muayyan mulkning yer, ariq, anhor,

qishloq xiroji yoki tanobona solig'i harbiy kishiga xizmati evaziga berilardi. Bu mulkning shakli "tarxon" bo'lib, egasi shu soliqlarni olardi. Harbiylarda o'z shaxsiy mulklari bo'lsa xizmatlari evaziga ular soliq to'lashlardan ozod etilardi. Muayyan mulkdan xiroj olish huquqi (muayyan muddat uchun ham) tarxon yoki vaqf shaklida harbiylar va ruhoniylarga berilgan. Xudayorxon davrida mulkni "urg'u" (musodara) qilish yo'li ham qo'llanib xazina to'latib turilgan. Biror bir ayb bilan, hatto kuchli sarkardalar, qabilalarning ashroflari va qo'shin amirlarining mol-mulklari ham musodara qilinib, o'zlariga jazo berilar edi.

Bulardan tashqari, harbiy yurishlar natijasida qo'lga kiritiladigan o'lja harbiylarning qo'shimcha daromadlari hisoblanar edi. Bunday yo'l bilan to'plangan mol-mulk qatnashchilari o'rtasida teng taqsimlanardi.

1842-yil Buxoro fiqhlarini bergan fatvo asosida Farg'ona zomini talon taroj bo'lganini Avaz Muhammad Attor maxsusqayd qilgan edi. Agarda Buxoro amirlaridan faqat Amir Muzaffarning Qo'qonga qarshi yurishlarini hisobga olsak ham, bu urush natijasida egallangan "o'lja" larning miqdorini aniqlash qiyin bo'ladi.¹

Olimxon davrida 1809 yili Toshketga yurish qilindi va xon farmoni bilan Qo'qon lashkarlari Chimkent va Sayramga zakot olishga yuborildi. Lekin Olimxon bu yurishdan kelgan boy "o'lja" ga bir o'zi sohiblik qilmoqchi edi, lashkar norozi bo'lib, undan yuz o'girdi va Amir Umarxon tarafiga o'tib oldi.² Qo'qon xonligi bilan Buxoro o'rtasida joylashgan Jizzax, O'ratepa ikki tarafdin ham harbiy yurishlarni dxiimiy nishoniga aylanib qolgan edilar. Birgina Amir Umarxon davrida O'ratepaga qarshi "o'lja" niyati uchun 16 marta qo'shin tortilgani manbalardan ma'lum.

¹ Аваз Мухаммад Аттoр Хўқандий. Тарихий жаҳонномайи. 2-жилд. 331 бет

² Фазлий Фарғоний. Умарнома. 296 бет

3. Saroy unvon va mansablari

Oliy darajadagi unvon va mansablar: otaliq, beklarbegi, bey, devonbegi, xazinachi, inoq, eishkog'asi, parvonachi, dadxox, dasturxonsi, sarkor, sharbatdor, oftobachi, qorovulbegi (saroyda), tunqator, qo'shbegi.

O'rta darajali unvonlar va amallar: kitobdor, risolachi, bakovul, mirzaboshi, sarmunshi, mehtari zakotxona, miroxur, shig'ovul.

Past darajadagi mansablar: salomog'asi, mirzo, fayzi, munshi, surnaychi, karnaychi, dafchi, chovquvchi, jarchi (bosh), shotir, zinbardor (egarchi), jilovdor.

Otaliq (t.)-xon yoki xonzodaning murabbiysi, ularning homiylari. Ular tarbiyat bergan xonzoda taxto'ga sohib bo'lgandan so'ng o'zlari ham yuqori mansab va amallarga sohib bo'lar edilar. Buxoro amirligida ham eng oliy unvon hisoblanardi. Xonning rikob (uzangi) ahliga kirardi. Otaliqlardan Musulmonquli (taxminan 1792 yili tug'ilgan bo'lib, 1852 yil noyabr oyida qatl etilgan). Aliquli (1830-31-1865 yillari), Qanoatshoh otaliq (1862 yili Amir Muzaffar tomonidan qatl etilgan) Qo'qon xonligi tarixida katta o'rin egallaganlar. Ayniqsa Musulmonquli va Aliquli otaliqlar davrida xon nomidan oliy hukumat sohibi bo'lib qolib, davlat boshqaruv ishlari to'liq shu zotlarning qo'llarida edi.

Beklarbegi (t.-m.)- ya'ni, beklarning begi. Bu unvon xonning vorisiga yoki ba'zi viloyatlarning hokimiga berilgan. Beklarbegilardan Isfara va Chorkux hokimi Sotiboldi va Toshkent hokimi Lashkar beklarbegilar mashhur bo'lgan. Bulardan Lashkar (qo'shbegi) beklarbegi Toshkent va Dashti Qipchoq mulkida 1810 yildan 1847 yilgacha hokim bo'lib, juda oqil va odil sanalgan. Mirzolidini uning davrida boshlagan. "Xulosot ul-axvol" asarining muallifi Abu Ubaydullo Muhammad biyning Sultonxo'ja (Eshonxo'ja Qori Toshkandiy) Lashkar beklarbegini samimiyat bilan eslaydi.

Biy (t.)- turkiy qabilalarning peshvolari (Buxoro amarotida IX darajali mansabdor)

Devonbegi (ar.-t.)- xon devonining sardori. (Buxoroda XII darajali amaldor). Qo'qon xonligi viloyatlaridan Toshkent va Dashti Qipchoq mulkida ham

devonbegi amali bo'lgan. Lashkar beklarbegi davrida bu o'lkada hatto ikki nafar-Hakim devonbegi va Xudayberdi devonbegilar bu vazifani bajarganlar. Ular xiroj va zakot ishlari, viloyatning hisob kitob ishlarini olib borganlar. Hakim devonbegi Toshkent, Turkiston, Chimkent va Sayram yerlarida, Xudayberdi esa Pishpakkacha bo'lgan hududlarda devonbegi edi.

Xazinachi (ar.-f.)- davlat xazinasining hisob-kitobiga javobgar shaxs. Viloyat markazida ham xazinachi bo'lgan.

Inoq (ar.)- xonning xos va sirdosh mulozimi.

Eshikog'asi (t.-m.) (chehraog'asi)- eshik oldidagi soqchi, posbon. Xon maxramlarining va soqchi mulozimlarining sardori. Notanish kishilarni xon huzuriga ijozotsiz qo'ymaslikka javob beradi.

Parvonachi (f.)- bu unvon boshqa unvonlarning egalariga ham beriladi. Uning egasi o'zining xonga yaqinligidan foydalanib, xat va arizalarni saroyga olib kirib, u yerdan ketma ket parvonadek javobini olib chiqadi. (Buxoroda XII darajali mansabdor).

Dodxoh (f.)- saroy unvonlaridan. Xon oldiga boshqalarning istak va maqsadlarini (doston-adolat yig'uvchi sifatida-mual.) bayon etish huquigga ega mansab.

Dasturxonchi (f.-t.)-xon dasturxoniga umuman oshxonasiga javobgar mansab.

Saroy qorovulbegisi (m.-t.)-xon o'rdasining soqchilariga boshliq

Tunqator (t.). ya'ni tungacha uyg'oq soqchi. Xonning istirohati va yurishlari vaqtida muhofazat qilardi. Xonga yaqin kishilaridan tayinlanardi.

Sarkor (f.)-xon amaldorlarining boshlig'i, xonga tegishli ishxonalar, korxonalar hamda qurilish ishlariga boshchilik qilardi.

Qushbegi (mirishkor, t.-m.)- xonga ov vaqtlari qo'shilardi. Uning ovchi itlari, lochinlari bo'lib, ov vaqtida istirohat ishlariga ham javobzgar edi.

Salomog'asi (ar.-f.)-xon nomidan xalqqa salom beruvchi

Kitobdor (ar.-f.)-saroy kitobxonasining mudiri

Risolachi (ar.-f.)-devondagi vazifalardan bo'lib, elchilar va ularning xat-xabarlariga javob berardi.

Sarmunshi (f.-ar.)-munshilarning sardori

Jam'og'a (ar.-t.)- xonning rsuhbati, qabuli va bazmlariga ishtirok etadigan kishilarni chaqirib kelardi.

Jarchi (boshi, t.) xalq yig'iladigan joylarda xonning farmon va buyruqlarini jar solib e'lon qilardi.

Jibachi (t.)- jiba yasovchi (Buxoroda 4 darajali mansabdor)

Farroshboshi (ar.-t.)-saroy xizmatchilarining sardori

4. Diniy mansab va unvonlar

Shayx ul-islom (ar.)-dindorlarning eng oliy unvonlaridan bo'lib, umarxon tomonidan 1818 yili joriy etildi. Birinchi Shayx ul-islom Ma'sumxon to'ra, keyinchalik Zokirxon eshon Sulaymonxo'ja eshonlarning bu unvonga sohib bo'lganliklari bizga ma'lumdir.

Xoja kalon (ar.f.)- fiqh olimining faxriy unvoni

A'lam (ar.)-faqih olim va shariat qoidalarining bilimdoni

Oxund (t.)- bilimli va madrasada o'qiydigan kishi

Sudur (ar.)- vaqf mulklarining daromadlariga va hisob-kitobiga javobgar kishi

Naqib (ar.)-oqsoqol, olim fiqhlarning yordamchilari

Mudarris (ar.) madrasa ustozi. Xon tomonidan tayinlanib, yillik maosh olardi, ba'zan xon farmoni bilan mudarrisga "tarxon" ham berilgan.

Imomi jilav (ar.)-safari va yurishlar paytida xon va rikob ahliga xizmat qiladigan imom

Muazzin (ar.)-musulmonlarni besh marotoba nomozga chaqiruvchi, azon aytuvchi

So'fi jilav (ar.)-yurish va safarlarda xizmat qiladigan shaxs

5. Qozixonadagi unvon va mansablar

Qozi ul-quzot (ar.)-qozilar qozisi (ya'ni adliya vaziri)

Qozi kalon (ar.f.)- poytaxtda va viloyat markazlaridagi qozilarning va qozixona ishlarining ustidan nazorat qiladilar.

Qozii mutloq (ar.)-bosh qozi.

Qozi rais (ar.)-qo'shinlarda askariya muftisi bergan fatvolazrning ijro etilishi ustidan nazorat qiladi.

Muftiy (ar.)- ya'ni fatvo beruvchi

Muftiy askar (ar.)-qo'shin muftisi

Xonlikda shayx ul-islom eng yuqori martabali ruhoniylar kishi edi. U diniylar marosimlarining aniq bajarilishi ustidan nazorat qilardi.

Shayx ul-islom xonning o'ng tomoniga o'tirish huquqiga ega edi. Mudarrislar, qozilar va hokazolar xonning so'l tomonida o'tirardilar.

Din masalalarida xonning o'ng qo'li hisoblangan shayx ul-islom ruhoniylar tabaqalarning qozilik va obodonchilik sohasidagi faoliyatiga boshchilik qilardi. Xiva hokimlarining obodonchilik sohasidagi faoliyati masjid-madrasa ko'rishdangina iborat edi (risolaning Xivada qurilgan madrasalar ro'yxatga qo'yilgan).

Qozi ul-quzot (qozi kalon) musulmon huquqi va qonunlarni bajarilishini shariat asosida nazorat qilardi. Qozi kalonning poytaxtda o'zining devoni va mahkamasi bo'lardi. Viloyat markazlarida ham viloyat qozisi bo'lgan. Dor ul-qazo ularning mahkamalarining nomi edi. Lashkardagi qoida-qonunlar ustidan qozii askar (askariya qozisi) nazorat qilib, shar'iy masalalarni hal qilib turgan. Muftii askar ham lashkarda xizmat kilardi.

Qozi kalonlardan so'ng muftilar, a'lamlar va mudarrislar keladi. Maosh olganlar ruyxatida bularning nomlari yo'q. Biroq ular xonning yonida o'tirish huquqiga ega edilar.

A'lam-muftilar boshlig'i hisoblanardi. Uning vazifasi fatvolarda keltiriladigan shariat rivoyatlariiii tekshirishdan iboratdir. Ayrim rivoyatlarning asl nusxasiga mosligini aniqlagach, a'lam muhrini bosardi.

1256 (1840-1841) yili Otajon a'lam Rossiyaga elchi bulib borgan⁶. A'lam xonning o'ng tomonida uchinchi o'rinda o'tirgan". Muftilar-qozilarning huquqshunoslari hisoblanganlar. Ular ish ko'rganda ishtirok qilishlari, hukmnoma tuzishlari va rivoyatning tug'riligini tasdiqlash uchun hujjatlarga muhrlarini bosishlari lozim edi. Xivada bosh mufti 7 ta edi. Barcha muftilarning xon yonida o'rinlari bor edi. Mufti xonning o'ng tomonida, to'rtinchi o'rinda o'tirardi. Ikkinchi mufti esa beshinchi o'rinda, xonning o'ng tomonida o'tirardi. Mudarrislar ham o'ng tomonda o'tirardilar".

Raislar (ar.)-shariat tartib-hovdalari, diniy marosimlar-ro'za, besh vaqt nomoz, tahorat, xayri-ehson ishlarining aniq bajarilishi ustidan nazorat qilardilar. Ota-onalar bolalarini o'z vaqtida maktabga yuborishini savdogarlar xarvdorlarni aldamasliklari uchun tarozularni tekshirib turadi, shaharni tozaligi va xavfsizligini kuzatib turganlar. Har bir shahar va katta qishloqning o'z raisi bo'lib, qozi kalon taqdimiga muvofiq xon tomonidan tayinlangan.

Mudarris va oxunlar o'zlari ta'lim bergan madrasaning vaqfidan maosh olib turganlar, Madrasa ularga hujra ham bergan.

Qo'qon xonligida mavjud bo'lgan daraja va martabalarni aniqlash bo'yicha ishlar boshqa olimlar tomonidan ham olib borilayotgandir. Shuning uchun keng ma'noda ularning yangi, qo'shimcha fikrlari nuqtai nazarlari bizga juda muhimdir. Bu masalalarni turli davlatlardagi amal va mansablar bilan qiyosiy o'rganish ham foydadan xoli emas

XULOSA

Har bir davlatning boshqaruv tizimida amaldor shaxslarning o'rnini kattadir. Turkiston xonliklarida ham oliy hukmdor o'z hokimiyatini maxsus amaldorlar va xizmatchilari orkdli amalga oshirgan. Asrlar davomida sharqona davlatchilik tizimi muayyan bir tartibga kirgan edi. O'tmishda kaysi bir davlatning markazlashtirilgan hokimiyati mustahkam bo'lsa, u davlat rivojlangan. Mazkur risolada biz bir qator amallar, unvon va mansablar hamda ular egalarining vazifalarini Qo'qon, Buxoro va Xiva mamlakatlari misolida joriy etilib, amal qilinishini ko'rdik Albatta tadqiqrtimiz doirasidan chetda qolib ketgan mavzu va masalalar ko'p. O'zbek davlatchilik

tarixining dolzarb bo'lib qolishini nazarga olsak ushbu risola boshlangan ishlarining davomidir. Kelgusida davlatchilik tarixining asosiy mavzularidan sanalgan davlat ramzlari va ularning Hukukiy asoslarini qadimdan hozirgi davrgacha o'rgangaishi juda zarurdir.

Davlat boshqaruvi bilan bog'liq muammolardan yana biri bu jamiyatdagi tabaqalar va turli ijtimoiy guruhlarni o'rganilishidir. Bunda o'tmishimizda va hozirgi kunlarda aristokratiya mavqeining tadqiq etilishi dolzarb bo'lmokda. Mazkur mavzularni yoritilishda genealogiya nasabshunoslik fani, etnologiya, geraldika, vasiqashunoslik (diplomatiya) va boshqa maxsus tarix fanlari yordam berishlari aniq. Arab va fors tillarida yozilgan tarixiy, badiiy va ilmiy asarlarda ham biz aristokratiya va jamiyatning turli tabaqa va guruxlari, ularning mavqe' va maqomlari haqida boy ma'lumotlarni topishimiz mumkin. Yukorida tilga olingan tabaqalarning avlodlari va namoyandalari hollarida saklanayotgan yuzlab shajara va nasabnomalar. inoyatnomalar kimmatbaho manba' sifatida izlanish doirasiga tortilishi mumkin. Mazkur mavzu doirasiga kiradigan mustabid davri aristokratiya va partokratiya haqidagi ilmiy ishlar ham davr taqozosi bilan yoritilish lozim.

Kelajakda O'zbekiston hududdarida shakllaigan davlatlarning tarixini, ularda joriy etilgap boshqaruv tizimini, amallar, unvon va mansablarni o'rganilishi, davlat xizmatchilarining jamiyatdagi o'rinlarini o'rganish ham juda muhimdir.

Adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. - Т.: Шарқ. 1998.
2. Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. VII том. Тошкент: Ўзбекистон, 1999.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида хавфсизликка таҳдид барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Тошкент: Ўзбекистон, 1999.
4. Каримов И.А. “Юксак маънавият - енгилмас куч”. Т.: 2008.
5. Мулоқат, 1994, № 3-4 37 бет

6. Мулло Олим Махмуд Хожи. Тарихи Туркистон. –Т.: Туркистон генерал губернаторлиги нашриёти, 1995, 164-165 бетлар
7. Мулло Олим Махмуд Хожи. Тарихи Туркистон. –Т.: Туркистон генерал губернаторлиги нашриёти, 1995, 164-165 бетлар
8. Аваз Муҳаммад Аттор Хўқандий. Тарихий жаҳонномаи. 2-жилд. 331 бет
9. Фазлий Фарғоний. Умарнома. 296 бет
10. Аҳмедов Б. Амир Темурнинг давлатни идхора қилиш сиёсати //Мулоқат, 1994 № 3-4, № 4-5